



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
TOSHKENT TIBBIYOT
AKADEMIYASI



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
SOG'LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI

ENDOKRINOLOGIYANING DOLZARB
MUAMMOLARI:

TO'PLAMI

Xalqaro ilmiy-amaliy anjumani materiallari



Toshkent - 2023



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
SOG'LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI



TOSHKENT TIBBIYOT AKADEMIYASI

**ENDOKRINOLOGIYANING DOLZARB
MUAMMOLARI:
Xalqaro ilmiy-amaliy anjumani materiallari
TO'PLAMI**

ENDOKRINOLOGIYANING DOLZARB MUAMMOLARI: Xalqaro ilmiy-amaliy anjumani tezislar to'plami /Xalqaro ilmiy-amaliy anjumani tezislar to'plami/ MChJ "TIBBIYOT NASHRIYOTI MATBAA UYI" Toshkent - 2023 – 170 bet

ТАХРИР ХАЙ'АТИ / РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ

Bosh muharrir

tibbiyot fanlari doktori, professor
Shadmanov Alisher Kayumovich

Bosh muharrir o'rinnbosari

tibbiyot fanlari doktori, professor
Shagazatova Barno Xabibullayevna

Muharrirlar jamoasi

tibbiyot fanlari doktori, professor
Xamrayev Abror Asrorovich

tibbiyot fanlari doktori, professor

Najmutdinova Dilorom Qamaritdinovna

tibbiyot fanlari nomzodi, dotsent

Artikova Dilfuza Maxamadovna

tibbiyot fanlari nomzodi, dotsent

Azizova Pokiza Xusanovna

PhD, katta o'qituvchi

Yuldasheva Nigora Xusnullayevna

PhD

Axmedova Feruza Shaxbozxonovna

PhD

Mirxaydarova Feruza Sayfullayevna

Toshkent tibbiyot akademiyasida bo'lib o'tgan «Endokrinologizaning dolzarb muammolari» xalqaro ilmiy -amaliy anjumanida taqdim etilgan tezislar ushbu to'plamdan o'rin olgan.

To'plamning asosiy qismi endokrinologizaning dolzarb muammolarini aks ettiradi: ichki sekretsiza bezlari patologiyalarini davolash va oldini olishning samarali usullarini ishlab chiqish va tatbiq etishga bag'ishlangan.

Taqdim etilgan ilmiy natijalar terapiya yo'nalishining barcha mutaxassislari uchun ilmiy va amaliy ahamiyatga ega. Tezislarning mazmuni, ulardagi xatoliklar va statistik ma'lumotlarning haqqoniyligi uchun mas'uliyat mualliflar zimmasidadir.

QANDLI DIABET 2 TUR BEMORLARIDA DAPAGLIFLOZINLAR VA EMPAGLIFLOZINLARNING TA'SIRINING TAQQOSLAMA TAHLILI

Raximberdiyeva Z.A., Abdiqodirova D.A.
Toshkent tibbiyat akademiyasi

Tadqiqot maqsadi. 2-tur qandli diabeti mavjud bemorlarda surunkali buyraklar kasalligining kechishiga 2-tur natriy simportyor glyukoza ingibitorlari(SGLT2) ta'sirini taqqoslama tahlil qilish. Bemorlarda dapa- va empagliflozinlar ta'sirini o'zaro solishtirish. Preparatlarning natijasini klinik va laborator tekshirish va baholash.

Materiallar va usullar. Toshkent Tibbiyat Akademiyasi 2-klinikasi Endokrinologiya bo'limi va Toshkent Tibbiyat Akademiyasi ko'p tarmoqli klinikasi 2-son Ichki Kasalliklar kafedrasida voyaga yetgan (o'rtacha yoshi 45-60 yosh), 2-tur qandli diabet bilan kasallangan va uning asorati sifatida surunkali buyraklar kasalligi 2-4 bosqichda bo'lган, davo sifatida 2-tur natriy simportyor glyukoza ingibitorlari(SGLT2) guruhiga mansub dapagliflozinlar va empagliflozinlar qabul qilayotgan 25 ta bemorlar (bulardan 72% ini erkaklar, 28%ini ayollar tashkil qildi) kuzatuvga olindi. Jami bemorlardan 60%ida surunkali buyraklar kasalligining sababi diabetik nefropatiya, 16%ida ishemik yoki gipertenziv nefropatiya, qolgan 24%ida esa IgA-nefropatiya bo'lган. Ulardan 14tasi- Dapagliflozinlar guruhiga mansub Forsiga, 10tasi esa - Empagliflozinlar guruhiga mansub Emflazin preparatlarini qabul qilgan. Bemorlarda laborator tekshiruvlardan-och qoringa qondagi qand miqdori, koptokchalar filtratsiya tezligi(eGFR), peshobda albumin/kreatinin nisbatini (UACR) - albuminuriya mavjudligini tekshirish o'tqizildi va bu ikkala guruh preparatlarining samarasini taqqoslandi.

Unga ko'ra normada koptokchalar filtratsiya tezligi($eGFR = 125 \text{ ml/daq}/1,73 \text{ m}^2$ -erkaklarda, $90-120 \text{ ml/daq}/1,73 \text{ m}^2$ -ayollarda).

Surunkali buyraklar kasalligida:1-bosqich: normada yoki oshgan ($\geq 90 \text{ ml/daq}$);2-bosqich: sezilarsiz kamaygan ($60-89 \text{ ml/daq}$);3-bosqich: o'rtacha yoki ahamiyatli kamaygan ($30-45 \text{ ml/daq}$).4-bosqich: keskin kamaygan ($15-29 \text{ ml/daq}$);5-bosqich: terminal ($<15 \text{ ml/daq}$).

Forsiga preparatini qabul qilgan bemorlarda eGFR- koptokchalar filtratsiya tezligi- $25-75 \text{ ml/daq}/1.73 \text{ m}^2$ va albuminuriya- $200-5000 \text{ mg/g}$ bo'lган.Emflazin qabul qilgan 11ta bemorlarda ahamiyatlisi surunkali buyraklar kasalligi 4-bosqichda bo'lган.

Tadqiqot natijalari: Bemorlarda o'tkazilgan laborator tekshiruvlar natijasida Forsiga qabul qilgan 14 ta bemorda surunkali buyraklar kasalligining xavfi absolyut kamayishi (ARR) kuzatilgan. Koptokchalar filtratsiya tezligi($eGFR$) 3-bosqichdan $70-80 \text{ ml/daq}$ gacha ortgan. Albuminuriya esa 1000 mg/g gacha pasaygan (OP 0,79 (95% DI: 0,72, 0,87) va makroalbuminuriyani regressiyasiga sabab bo'lGANI kuzatildi (OP 1,82 (95% DI: 1,51, 2,20). Dapagliflozinning samarali ta'siri boshlang'ichga nisbatan xavf nisbati (Hazard Ratio)HR 0,64 (95% DI(Ishonchlilik indeksi): 0,52-0,79) и HR 0,50 (95% DI: 0,35-0,72) bo'lган. Qo'shimcha ravishda bemorlarda nojo'ya ta'sirlar sifatida dizuriya, poliuriya,ba'zan nikturiya kuzatilgan.

Forsiga qabuli letal yakun topishni 31%ga (ARR 2,1%) ga kamaytirgan. HR 0,69 [95% DI: 0,53-0,88]; $p=0,0035$.

Emflazin qabul qilgan 11ta bemorlarda yaqqol albuminuriya turg'un mikroalbuminuriyagacha yoki sezilarli pasaygan. Ya'nii peshobda albumin miqdori $500-600 \text{ mg/sutka}$ gacha pasayganligi aniqlangan. Empagliflozinlarning samarasiga SBKning og'ir bosqichlari ta'sir qilmaganligi sababli ularni SKBning 4-bosqichida ham ($eGFR < 29 \text{ ml/daq}$) qo'llanildi. Koptokchalar filtratsiya tezligi($eGFR$) $60-70 \text{ ml/daq}$ gacha. ko'tarilganligi kuzatilgan.

Xulosa. Dapagliflozinlar va empagliflozinlar qabulidan so'ng shu kuzatildiki, empagliflozinlar ta'siri dapagliflozinlarniga qaraganda kuchliroq va samaraliroq ta'sir qiladi.. Emflazinni SBKning 4-bosqichida ham qo'llash mumkin va bu effekt tezroq yuzaga kelgan. Salbiy,nojo'ya ta'sirlari ham kamroq.Qonda qand miqdorini kamaytirgan,koptokchalar filtratsiya tezligi kuchaygan,albuminuriya darajasi turg'un pasaygan.